

INGLIZ TILI ANTROPONIMLARINING SEMANTIKASIGA DOIR

Yuldashev Akmal Gulamjanovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: akmal1909@mail.ru

Ma'lumki atoqli otlar o'z genezisiga ko'ra, tilning eng qadimiy yashovchan hamda turg'un qatlamlaridan biri sanaladi. Antroponimlar o'tmishda ko'p asrlar davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida yetib kelgan ulkan madaniy va ma'naviy qimmatga molik bo'lgan lug'aviy qatlamdir. Antroponimlarda, ularning yaratilishida har bir xalq o'tmishining tarixi, orzu-intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, odatlari, e'tiqod va ishonchi o'z ifodasini topgan. Mana shu ma'noda antroponimlar tilning boshqa bir qator qatlamlari kabi xalq ma'naviy qadriyatining tarkibiy qismi sanaladi.

Shunday ekan o'rganilayotgan xorijiy til, xususan, ingliz tilini o'rganishda ham ushbu til madaniyatini qadriyatlarini, tarixini o'rganmasdan til o'rganishda samarali natijalarga erishish mushkul hisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ingliz tili antroponimlar semantikasini ochib berishga hamda ularning o'ziga xosligini aniqlashga harakat qilindi. Tabiiyki, suhbatdosh ismining ma'nosini bilish agarda u xorijlik bo'lsa, mehmonda iliq tuyg'uni vujudga keltiradi.

Ingliz tilshunosligida antroponimlarni tadqiq qilish yuzasidan talaygina ishlar amalga oshirgan. Chunonchi, 1996 yildan buyon bir milliondan ortiq inson Amerika atoqli otlar uyushmasi veb-saytini kuzatuvchisiga aylandi. Natijada tilshunos va faylasuflar inson ismlari oddiygina tanib olish yoki pasport talabi emasligini xattoki ismlarga insonning mulki sifatida qarash lozimligini ta'kidladilar. Aynan ushbu qarash orqali ota-onalar farzandlariga to'g'ri ism berishi lozim ekanligiga amin bo'lgan holda bu masalaga jiddiy e'tibor qarata boshladilar. Ushbu holatlarni jamlagan holda G.Bruk va B.Bodenxornlar "Ism va nomlash antropologiyasi" nomli monografiyasini nashr etdilar. Ushbu ilmiy adabiyot atoqli otlar haqida bo'lib, asosiy maqsad nafaqat ismlar va ismlarga antropologik e'tiborni yangilash, balki bu siyosiy jarayonlardagi hozirgi manfaatlar hamda individual o'ziga xosliklar o'rtasidagi munosabatlar, marosim va kundalik ijtimoiy hayot bilan qanday kesishishini ko'rsatishdan iborat [2].

Alastair Fauler ingliz badiiy asarlarda qo'llanilgan taxalluslarni tadqiq qilgan bo'lib, olim asosan Gomer, Spenser, Shekspir, Milton, Dikkins asarlarida qo'llanilgan atoqli otlar tarixini kuzatib, ismlar qanday qilib ko'pincha tematik diqqat markazida bo'lishini ko'rsatadi. Shuningdek, lotin, yunon, fransuz va italyan – adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini ham o'rganadi. Fauler badiiy adabiyotda ismlar assosiativiyasi dastlab cheklangan bo'lsa, keyinchalik uning rivojlanib borishi tadqiqotlar uchun keng yo'l ochishini ta'kidlaydi [4].

A. Gardiner atoqli otlar nazariyasi xususida maxsus tadqiqotlar olib borgan. Olimning fikricha atoqli otlar madaniy ahamiyatga ega bo'lib, inson zahiraviy bilimining yorqin namoyondasi sanaladi [5].

V.V. Dyachenko ingliz va rus tillaridagi antroponimlarning sosioleksikologik aspektini tadqiq qilgan. Tadqiqotchining asosiy vazifasi qiyoslanayotgan tillar antroponimlarining lingvokulturologik hamda o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat bo'lgan [1].

Yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotlar ingliz tili onomastikasi xususan antroponimlar tadqiqini amalga oshirishda fundamental izlanishlar sanaladi. Ammo ta'kidlash joizki hozirda antroponimlar tadqiqi sira xira tortmaydigan tadqiqot ob'yekti sanaladi. Quyida ingliz tilidagi ayrim antroponimlarning semantikasini o'rganish barobarinda ularni tematik guruhlariga ajratildi. Antroponimlar semantikasini yoritishda Oxford nashriyotida chop etilgan "Dictionary of first Names" lug'atidan foydalanildi.

Inson tug'ilgan joyining nomini anglatuvchi antroponimlar:

Ingliz tilidagi *Adrian* ismi aslida lotin tilidan ingliz tiliga o'zlashgan bo'lib, Hadrianus – Xandriyalik ma'nosini anglatadi. Xandriya shahri Italiyaning shimolida joylashgan. Ushbu nomni dastavval Rim imperatori Publiy Eliy Adrian xukumronlik davridan (mil. 117-138) qo'llanilgan [DFN 2016: 4].

Barbara (Barbara) lotin tilidan ingliz tiliga kirib kelgan. Uning ma'nosi "xorijlik ayol" yoki "begona ayol". Qadimda greklar o'zga davlatdan kelganlarning nutq aktida ularning nutqlarini tushunmaganliklarini bois ularga nisbatan *bar-bar* ya'ni biz tushunmagan til ma'nosini anlatuvchi til elementini qo'llagan shuning bilan *Barbara* antroponimga aylangan va hozirda begona ayol ma'nosini deyarli yo'qotgan [DFN 2016: 27].

Ingliz tilidagi *Dean* shaxs familiyasini anglatib ikki xil kelib chiqish tarixiga ega, birinchisi o'rta Ingliz tilida (Middle English) *dene* va qadimgi ingliz tilida (Old English) *denu* "vodiya yashovchi" ma'nosini anglatadi. Ikkinchi ma'nosi esa cherkovda nazoratchi lavozimida xizmat qiluvchi insonni anglatadi [DFN 2016: 71]. Shuningdek hozirgi zamon ingliz tilida mazkur leksema kasbga oid termin hisoblanib oliy ta'lim muassasalarida muayyan fakultet rahbari ma'nosini anglatadi.

Ingliz tilidagi umum qabul qilingan *Ford* familiyasi aslida muayyan daryodan o'tish mumkin bo'lgan joyda yashovchi kishilar ma'nosini anglatadi (Old English *ford*) [DFN 2016: 102]. Shuningdek, ushbu nom AQSHda ishlab chiqariladigan dunyoda to'rtinchi o'rinda turuvchi Ford avtomoshinasining nomi sanaladi. Aslida bu nom mazkur avtoullov ixtirochisi Genri Ford nomiga qo'yilgan.

Ingliz tilining Amerika variantida o'rmonga yaqin bo'lgan yoki o'rmon bilan o'ralgan joyda istiqomad qiluvchi insonlar *Forest* [DFN 2016: 102] nomi bilan ataladi aslida ingliz tilidan o'zbek tiliga *forest* o'rmon tarzida tarjima qilinadi. Shuningdek, Yevropa va Amerika xalqlari asosan nasroniy dinga e'tiqod qiladilar, va ma'lumki har qanday din xox u nasroniy yoki islom bo'lsin jannat va do'zzax tushunchasi mavjud. Ikki dinda ham do'zzax salbiy, jannat esa ijobiy assosiativ ma'noga ega hisoblanadi. Masalan ingliz tilidagi *Better go to heaven in raangs than to hell in embroidery* (*Jahannamga kimhob kiyib borgandan, jannatga juldur kiyib borgan afzal*) maqol ham fikrimizni tasdiqlaydi. Amerikaliklar orasida ham abadiy baxt egasi bo'lishini tilab farzandlariga *Xyeven* (Heaven) deb ism qo'yadilar [DFN

2016: 120] o'zbek tilida ham *Jannat* – jannatning qizi [O'zIM 2007: 133] ma'nosida qizlarga qo'yiladi.

Inson xarakterini ifodalovchi antroponimlar:

Ingliz tiliga lotin tilidan o'zlashgan *Agatha* 'good, honourable' [DFN 2016: 5] yaxshi, hurmatga sazovor ma'nosini anglatadi. Ushbu ism o'rta asrda nasroniy dinida bo'lgan avliyo ismi bilan tanilgan.

Inson halatini ifodalovchi antroponimlar:

Aslida fransuz tilidan ingliz tiliga o'zlashgan *Aimee* "beloved" [DFN 2016: 6] "sevilgan" ma'nosini anglatib, hozirda ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar orasida keng tarqalgan antroponim sanaladi [DFN 2016: 6].

Normand fransuz tilidan o'zlashgan *Algernon* "with a moustache" [DFN 2016: 9] "mo'ylovga ega bo'lgan kishi" ma'nosini anglatadi. Odatda Normandlar soqoli toza olingan hech qanday mo'ylov va soqoli bo'lmagan. Bu ism Vilgelm de Persi bilan Uiliym fatxi bilan bog'liq sanaladi.

Allegra – "happy, jaunty" [DFN 2016: 10] italyan tilidan o'zlashgan bo'lib, "baxtli", "uddaburon", "dadil" ma'nosini anglatadi.

Ingliz tiliga lotin tilidan o'zlashgan *Amanda* "lovable, fit to be loved" [DFN 2016: 13] ayollar ismi bo'lib, "suyukli, sevishga, ardoqlashga arzirli" ma'nosini anglatadi. Aslida qadimgi fransuz tilidan ingliz tiliga o'zlashgan *Ami* (Amy) 'beloved' [DFN 2016: 14] "sevilgan, suyulgan" ma'nosini anglatadi.

Asli yaxudiy tilidan o'zlashgan *Asher* 'fortunate' or 'happy' [DFN 2016: 22] 'baxtli' ma'nosini anglatadi. Mazkur ism Injilda qayd qilingan bo'lib, Yoqub o'g'illaridan birining ismi. Injilda ushbu ism yuzasidan quyidagi jumla qayd qilingan "Leax dedi: men baxtliman chunki qizlarim meni baxtli deyishadi, shuning uchun men o'g'limni Asher deb qo'ydim". Bible by one of the sons of Jacob: 'and Leah said, Happy am I, for the daughters will call me blessed; and she called his name Asher' (Genesis 30:13) [DFN 2016: 22].

Asl irland tilidan ingliz tiliga o'zlashgan *Brian* 'high' or 'noble' [DFN 2016: 38]. Brian atoqli oti "baland, oliyjanob, himmatli" ma'nolariga ega. Mazkur ism doimo Irlandiyada mashhur bo'lib, ushbu atoqli ot Irlandiyadan vikinglarni quvib yuborish natijasida mazkur xudud qiroli bo'lganligi uchun uning nomini abadaylashtirish maqsadida Gaelic Brian Boroimhe (c. 940-1014) avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

Nemis tilidan ingliz tiliga o'zlashgan *Charles* 'free man' [DFN 2016: 52] 'ozod inson' ma'nosini anglatadi.

Ingliz tilidagi Franklin familiyasi O'rta asr ingliz tilida *Franklin* 'freeman' [DFN 2016: 103] 'ozod inson' ma'nosini anglatib, aslida aslzoda oila a'zosi bo'lmagan ammo ixtiyori o'zida bo'lib yer mulkiga ega bo'lgan inson ma'nosini anglatgan. Ushbu atoqli otning lug'aviy ma'nosi eski fransuz tilidagi franka ya'ni ozod ma'nosida, ozod inonlar va franklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik eski lotin tilidagi *francalia* avvalo franklarga tegishli bo'lgan yer, turli soliqlardan holi bo'lgan. Hozirda bu ism Amerika Qo'shma Shtatlarida mashhur bo'lib, davlat arbobi hamda ziyoli bo'lgan Benjamin Franklin (1706-1790) ismiga bag'ishlab

qo'yiladi. Ushbu ismning ommalashib ketishida prezident Franklin D. Ruzvelt sabab bo'lgan.

Tashqi ko'rinishi:

Qizil sochga ega bo'lgan qizlarga laqab tarzida qo'llaniladigan *Ginger* (*Ginger*) 'for someone with red hair [DFN 2016: 111] XX asrda xattoki atoqli ot sifatida ham qo'llanilgan.

Gul nomlarini anglatuvchi antroponimlar:

Ingliz tilidagi *Daxlia* (*Dahlia*) gulining nomi aslida uning ixtirochisi shved botaniki Anders Dahl (1751-89) nomidan olingan. Dahlia From the name of the flower, which was so called in honour of the pioneering Swedish botanist Anders Dahl (1751-89) [DFN 2016: 67].

Ingliz tilida *Daisy* – *dastorgul* antroponim sifatida insonlarga ham qo'yiladi. Uning asl ma'nosi eski ingliz tilida 'day's eye' [DFN 2016: 67] ya'ni "kun ko'zi" ma'nosini anglatadi. Mazkur gulning bunday nom bilan atalishi kun chiqqan paytda sariq guli ochiladi va kun botishida ushbu gullar yopiladi. Shuning uchun gulning nomi *kun guli* deb nom olgan.

Ota nomi bilan atalgan antroponimlar

Ingliz tilining Amerika variantida ota ismining atoqli otlarga ko'chirilish holatlari keng uchraydi. Ingliz tilida ayrim erkaklarning ismlariga son – o'g'il so'zi qo'shiladi. Bunday holat aslida arab tilida keng tarqalgan masalan, atoqli ot tarkibidagi *ibn* so'zi ham o'g'il ma'nosini anglatadi ya'ni kimning o'g'li ekanligi. Hozirda o'zbek tilida ham yangi tug'ilgan o'g'il bolaga otasining ismidan keyin o'g'li leksemasi qo'shilgan. Ingliz tilida ham *Emerson* 'son of Emery' [DFN 2016: 90], shuningdek mazkur ism mashxur amerika shoiri Ralph Waldo Emerson (1858-1928) bilan bog'liq.

Ingliz tilida ayrim atoqli otlar bola otasining ismi bilan yuritilgan bo'lsa, endilikda qo'shma ot tuzilishida ism tarzida qo'yilmoqda. *Jackson* 'son of Jack' [DFN 2016: 134] 'Jekning o'g'li' ma'nosida bo'lgan bo'lsa, endilikda to'liq ism tarzida qo'llanilmoqda. Xattoki ushbu ism AQSH prezidenti bo'lgan Andrew Jackson (1767-1845) ga xurmat bajo keltirish maqsadida qo'yilgan.

Yana bir misol *Jefferson* 'son of Jeffrey' [DFN 2016: 140] aslida mazkur ism AQSH mustaqillik deklaratsiyasi asosiy muallifi hamda davlat arbobi Thomas Jefferson (1743-1826) nomini xurmatlash va e'zozlash uchun qo'yiladi. Shuningdek, Thomas Jefferson AQSHning uchinchi prezidenti bo'lib qolmay balki AQSH aholisining xotirasida olim, arxitektor hamda yozuvchi sifatida xotirasidan o'rin olgan.

Xuddi shunday, *Jenson* transferred use of the surname, which is probably a variant of Janson 'son of Jan', a medieval form of John [DFN 2016: 141], *Jonson* transferred use of the -surname, meaning originally 'son of John' and in modern times sometimes bestowed with precisely this meaning [DFN 2016: 146].

Hayvon nomlari:

Ingliz tilida ayrim hayvon nomlari masalan, *Hawk* (qirg'iy) a transferred use of the surname derived from this word. variant: Hawke [DFN 2016: 120] insonlarning familiyasi tarzida qo'llaniladi. Yana bir misol insonlar orasida

ayyorlikka moyilligi yuqori bo'lgan yoki qizg'ish rangli sochga ega bo'lgan insonlarga ham tulki nomi familiya tarzida o'zlashtirilgan holatlar ham mavjud *Fox* – this may originally have been given to a cunning person, or to someone with red hair, or for some other anecdotal reason [DFN 2016: 102].

Arab tilidan o'zlashgan antroponimlar:

Tarixdan ma'lumki arablar nafaqat O'rta Osiyo balki Yevropaning bir qator yerlarini bosib olgan. Natijada, tabiiyki, bosib olgan davlatning xukumronligi doirasida til lug'at tarkibidagi so'zlar ham asl ma'nosi bilan saqlangan holda tobe davlat tiliga o'zlashadi. Bunday holatga misol tariqasida *Jamal* Arabic name meaning 'good looks, beauty' [DFN 2016: 136] "yaxshi ko'rinishga ega, chiroyli" ma'nosini anglatuvchi *Jamal* atoqli oti ham xuddi shu ma'noda qo'llanilgan (erkaklar ismi), ayollarga esa *Jamila* Arabic name meaning 'beautiful, graceful' [DFN 2016: 137] 'chiroyli, nafis' ma'nosi bilan atab qo'yiladi. O'zbek tiliga ham mazkur arab tilidan o'zlashgan leksemalar atoqli ot tarzida qo'llaniladi *Jamila* – go'zal, sohibjamol, maftunkor qiz [O'IM 2010: 132].

Dinga asoslangan antroponimlar:

Ingliz tilida dinga oid antroponimlar ham ko'p uchraydi masalan, 'Alloh mening qasamim' ma'nosini anglatuvchi ingliz olamida keng tarqalgan *Elisabeth* 'God is my oath' [DFN 2016: 87] aslida ushbu ism Injilda keltirilgan ma'lumot asosida Aoronning rafiqasi *Elisheba* bir ma'noda bo'lgan. the name of the wife of Aaron according to the genealogy at Exodus 6:23.

Injilda keltirilgan ismlardan biri Benjamin Yaqubning kenja o'n ikkinchi o'g'lining ismi. Yaqubning o'g'li Raxil ismli ayolidan bo'lib, Benjamin tug'ilganda ona xastalanib vafot etadi. Ona jon berish pallasida farzandiga Benoni, 'son of my sorrow' [DFN 2016: 31] ya'ni 'g'am anduhimning o'g'li' ma'nosini anlatuvchi ism qo'yadi. Ammo ota farzandiga bunday salbiy ma'noga ega bo'lgan ism qo'yilishini istamay unga *Benjamin* 'son of the south' [DFN 2016: 31] 'o'ng qo'l o'g'li' yoki 'janubning o'g'li' ma'nosini anglatadi. Yaqubning Raxildan yagona farzandi bo'lgan Benjamin Kano'nda Falastinda joylashgan shaharda tug'ilganligi bois ushbu ismni qo'ygan.

Ingliz tilining Amerika variantida keng tarqalgan ammo asli ivrid tilidan o'zlashgan *Ariel* 'lion of God' [DFN 2016: 20] 'Alloh sheri' ma'nosini anglatadi. Ammo ushbu ism Isroilda o'g'il bolalarga qo'yiladi, bu holat mantiqan to'g'ri sanaladi chunki odatda barcha xalqlarda sher erkak kishiga qiyos qilinadi, AQSHda esa mazkur ism qizlarga qo'yilishi keng tarqalgan.

Asli ivrit tilidan ingliz tiliga o'zlashgan Injilda keltirilgan obrazlardan biri *Azania* Azaniah 'heard by God' [DFN 2016: 25] 'Alloh tomonidan eshitilgan' ma'nosini anglatuvchi antroponim odatda erakaklarga qo'yiladi. Yana bir ivrit tilidan o'zlashgan *Cain* 'acquired' [DFN 2016: 44] 'orttirilgan' ma'nosini anglatadi. Ushbu antroponim Injilda keltirilishicha Odam ato va Momo havoning to'ng'ich o'g'ilining ismi bo'lib rashk tufayli o'z akasining qotiliga aylangan bola edi. Ushbu antroponim salbiy assosiatsiyaga ega bo'lishiga qaramay hozirda keng ist'yemoldagi atoqli ot sanaladi.

Injilda qayd etilgan yana bir ismlardan biri *Daniel* ‘God is my judge’ [DFN 2016: 68] ‘mening hakamim Alloh’ ma’nosini anglatuvchi antroponim ivrit tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan. U Assyrian king Nebuchadnezzar quli bo‘lib, u tush tabirlarini yaxshi bilishi bilan shuhrat qozongan. Uning dushmanlari uni sher qafasiga tashlaydilar ammo u Allohning qudrati bilan qafasdan xech qanday ziyon zahmatsiz chiqadi. Aynan ushbu voqea o‘rta asrlarda mashxur xikoyaga aylanadi. Mazkur antroponim XVI asrdan Angliyada juda sermahsul sanalgan hamda uning eng ko‘p qo‘llanilishi 1980 yillarga to‘g‘ri keladi [DFN 2016: 68].

Injilda keltirilgan *Jemima* meaning ‘dove’ or ‘bright as day’ in Hebrew [DFN 2016: 140] ivrit tilida ‘kabutar’, ‘kun kabi yorug’ ma’nosini anglatadi. Jobning eng kichik qizi bo‘lib, ushbu qizaloq uning umrini payoniga yetgan pallada hamda uning gullab yashnagan davrining xotimasida dunyoga kelganligi uchun kun kabi yorug’ ya’ni uning xayotini davom ettirishiga va yangitdan boshlanishiga qiyos qilib qo‘yilgan. Mazkur ism Angliyada 1700 yillarda juda mashhur bo‘lgan ammo hozirda ham ingliz oilalarida bunday farzand ismlari orasida uchrab turadi.

Injilda keltirilgan va ingliz tilidagi shakli *Michael* ‘who is like God?’ [DFN 2016: 194] ivrit tilida “Kim Allohga o‘xshaydi” ma’nosini anglatadi. Qadimda ushbu ism katolik cherkovlarida avliyolarga nisbatan qo‘llangan. U samoviy xarbiylarni ham boshqargan hamda olovli qilich sohibi sifatida tasvirlangan. Shuning uchun ushbu ism cherkov uchun kurash olib borgan va jangchilar homiysi sifatining ramzi sanaladi.

Injilda keltirilgan ‘Alloh eshitgan’ ma’nosini anglatuvchi *Samuel* ‘God has hearkened’ [DFN 2016: 240] bo‘lajak onaning o‘g‘il farzand tilab qilgan duosini Alloh eshitib, duo ijobat bo‘lganligini ko‘rsatadi. Aynan ushbu ma’noda quyidagi asli Injilda qayd etilgan va ivrit tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan *Saul* meaning ‘asked for’ or ‘prayed for’ [DFN 2016: 242] ‘tilab olingan’ ‘duo qilingan’ ma’nosida, *Simeon* ‘hearkening’ [DFN 2016: 246] ‘tinglangan’ ya’ni ota-onaning nolasini Alloh tomonidan tinglangan ma’nosida. Ushbu ism bilan Isroilning birinchi qiroli nomi bilan bog‘lanadi.

Yuqorida keltirilgan misollar tahlili asosida shuni xulosa qilish mumkinki, antroponimlar semantikasini tadqiq qilish orqali o‘tmishda yashagan insonlarning kechinmalari, dunyoqarashi, hamda o‘sha davrning ijtimoiy holatini aniqlashga yaqindan yordam beradi. Shuning bilan birga, inson madaniyatlararo muloqotda suhbatdoshining ismi haqida tushunchaga ega bo‘lishi muloqotning samarali kechishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Dyachenko V.V. Substandarstnyye antroponimy v angliyskom i russkom yazykax (kontrastivno-sosioleksikologicheskiy aspekt): avtoref. dis. ... kand. filol. nauk /V.V. Dyachenko. - Pyatigorsk, 2007. - 19 s.
2. Bruck G., Bodenhorn B. The Anthropology of Names and Naming. - Cambridge University Press, 2006. - 290 p.
3. Clark C. Words, names, and history: selected writings of Cecily Clark – Suffolk: St Edmundsbury Press Ltd, 1995. - 453 p.

4. Fowler A. Literary Names: Personal Names in English Literature – Oxford University Press, 2012. - 304 p.
5. Gardiner A. The Theory of Proper Names. A Controversial Essay. – Oxford: Oxford University Press, 1954. - 78 p.
6. Patrick Hans, Kate Hardcastle, Flavia Hodges. A Dictionary of First Names. Second Edition. – Oxford University Press, 2016.